



TOSHKENT SHAHAR  
STATISTIKA BOSHQARMASI

# TOSHKENT SHAHRIDA QURILISH ISHLARI

2023- YIL  
YANVAR-SENTABR





# Toshkent shahar statistika boshqarmasi

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida, Toshkent shahrida jami 26 221,5 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022-yilning yanvar-SENTABR oylariga nisbatan 100,2 % ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.




# 2023- yil 1-oktabr holatiga qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, soni *birlikda*



## Yillar kesimida soni



## Hududlar kesimida



3 509

Bino va inshootlar qurish

698

Fuqarolik obyektlarini qurish

2 970

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2022-yilning mos davri bilan solishtirganda o'sish sur'ati 75,9 foizni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 48,9 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 74,0 foiz bo'lgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 9,7 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 95,1 foizga oshgan;


ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 41,6 foiz ulushni va 74,7 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.



|                        | Holatiga:      |                | o'tgan yilga nisbatan, % da |
|------------------------|----------------|----------------|-----------------------------|
|                        | 01.10.2022- y. | 01.10.2023- y. |                             |
| <b>Toshkent shahar</b> | <b>9 453</b>   | <b>7 177</b>   | <b>75,9</b>                 |

tumanlar:

|                |      |     |       |
|----------------|------|-----|-------|
| Bektemir       | 221  | 177 | 80,1  |
| Mirzo Ulug'bek | 1198 | 964 | 80,5  |
| Mirobod        | 867  | 658 | 75,9  |
| Olmazor        | 775  | 522 | 67,4  |
| Sirg'ali       | 512  | 435 | 85,0  |
| Uchtepa        | 671  | 422 | 62,9  |
| Chilonzor      | 1198 | 857 | 71,5  |
| Shayxontohur   | 742  | 531 | 71,6  |
| Yunusobod      | 1153 | 854 | 74,1  |
| Yakkasaroy     | 958  | 723 | 75,5  |
| Yangiyul       | 252  | 257 | 102,0 |
| Yashnobod      | 906  | 777 | 85,8  |



# 2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Mirzo Ulug'bek (13,4)



Yunusobod (11,9)



Chilonzor (11,9)



## Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-sentabr oylari uchun

|                        | Qurilish ishlari, mlrd. so'm | Shu jumladan:                |                         |                 |
|------------------------|------------------------------|------------------------------|-------------------------|-----------------|
|                        |                              | Yirik qurilish tashkilotlari | Kichik va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
| <b>Toshkent shahar</b> | <b>26 221,5</b>              | <b>7 646,3</b>               | <b>16 176,9</b>         | <b>2 398,3</b>  |
| <b>tumanlar:</b>       |                              |                              |                         |                 |
| Bektemir               | 762,3                        | 227,4                        | 444,3                   | 90,6            |
| Mirzo Ulug'bek         | 2 833,8                      | 657,5                        | 1 815,5                 | 360,8           |
| Mirobod                | 3 624,5                      | 1 221,3                      | 2 213,7                 | 189,5           |
| Olmazor                | 1 881,7                      | 594,5                        | 1 101,1                 | 186,1           |
| Sirg'ali               | 1 157,3                      | 173,5                        | 671,9                   | 311,9           |
| Uchtepa                | 1 200,0                      | 374,8                        | 657,7                   | 167,5           |
| Chilonzor              | 2 490,5                      | 621,7                        | 1 710,3                 | 158,5           |
| Shayxontohur           | 2 387,3                      | 900,8                        | 1 292,2                 | 194,3           |
| Yunusobod              | 4 093,0                      | 1653,7                       | 2 198,3                 | 241,0           |
| Yakkasaroy             | 2 758,3                      | 708,8                        | 1 894,5                 | 155,0           |
| Yangihayot             | 1 217,5                      | 309,4                        | 747,4                   | 160,7           |
| Yashnobod              | 1 815,3                      | 202,9                        | 1 430,0                 | 182,4           |




2023- yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 7 646,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Yirik qurilish ishlari 2022-yilning mos davriga nisbatan 87,8 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 29,2 % ni tashkil etdi.


# Qurilish ishlari

## 2023- yil yanvar-sentabr oylari uchun



**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.





**MA'LUMOT UCHUN:** Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Yunusobod tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 40,4 % yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 74,5 %) Mirobod tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 33,7 % yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 97,3 %) ga to'g'ri keldi.



# Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 61,7 %i to'g'ri kelib, 2022-yil yanvar-sentabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan 7,2 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 113,8 % ni tashkil etgan holda 16 176,9 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



61,7

2023- yil yanvar-sentabr

54,5

2022- yil yanvar-sentabr



**MA'LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Mirobod tumanida (2 213,7 mlrd. so'm yoki ulushi 13,7 %) Yunusobod tumanida (2 198,4 mlrd. so'm yoki ulushi 13,6 %), va Yakkasaroy tumanida (1 894,5 mlrd. so'm yoki ulushi 11,7 %) ga to'g'ri keldi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 9,2 %ni tashkil etdi yoki 2 398,3 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2022-yilning mos davriga nisbatan 72,8 % ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 672,6 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 25 548,9 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning shahardagi ulushi mos ravishda 2,6 % va 97,4 % ni tashkil etdi.



# Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi 2023- yil yanvar-sentabr oylarida



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **58,5 %** i yoki **15 351,8** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**32,9 %**

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **5 055,3** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **32,9 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **9 001,1** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **58,6 %** ni tashkil etdi.

**58,6 %**

**8,5 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1 295,4** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **8,5 %** ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-sentabr oylarida


|                        | Qurilish ishlari,<br>mlrd. so‘m | O‘shish<br>sur‘ati,<br>% da | Umumiy hajmga<br>nisbatan foizda |
|------------------------|---------------------------------|-----------------------------|----------------------------------|
| <b>Toshkent shahar</b> | <b>26 221,5</b>                 | <b>100,2</b>                | <b>100,0</b>                     |
| <b>tumanlar:</b>       |                                 |                             |                                  |
| Bektemir               | 762,3                           | 100,2                       | 2,9                              |
| Mirzo Ulug‘bek         | 2 833,8                         | 121,6                       | 10,9                             |
| Mirobod                | 3 624,5                         | 96,5                        | 13,8                             |
| Olmazor                | 1 881,7                         | 113,1                       | 7,2                              |
| Sirg‘ali               | 1 157,3                         | 119,0                       | 4,4                              |
| Uchtepa                | 1 200,0                         | 75,4                        | 4,6                              |
| Chilonzor              | 2 490,5                         | 92,7                        | 9,5                              |
| Shayxontohur           | 2 387,3                         | 100,1                       | 9,1                              |
| Yunusobod              | 4 093,0                         | 87,8                        | 15,6                             |
| Yakkasaroy             | 2 758,3                         | 121,3                       | 10,5                             |
| Yangihayot             | 1 217,5                         | 106,2                       | 4,6                              |
| Yashnobod              | 1 815,3                         | 93,5                        | 6,9                              |



*Ma‘lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.*



# Toshkent shahrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



*Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 25,0 % ni tashkil etib, 2022- yil yanvar-sentabr ko'rsatkichiga nisbatan 7,9 % punktga kamaydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 12,2 % punktga ko'payib, 61,7 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,3 % punktga kamaydi, 13,3 % ni tashkil etdi.


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 45,3 % ni tashkil etdi va 2022- yil yanvar-sentabrga nisbatan 0,1 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 54,7 % (0,1 % punktga ko'payish)ni tashkil etdi.

## ulushi % da




2022- yil  
yanvar-sentabr



2023- yil  
yanvar-sentabr



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 8,6 % punktga ko'paydi va 31,4 % ni tashkil etdi. Qolgan 68,6 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 8,6 % punktga kamaydi.








## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-sentabr

|                        | Qurilish ishlari, mlrd. so'm | shu jumladan:               |                               |                                      |
|------------------------|------------------------------|-----------------------------|-------------------------------|--------------------------------------|
|                        |                              | Bino va inshootlarni qurish | Fuqarolik obyektlarini qurish | Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari |
| <b>Toshkent shahar</b> | <b>26 221,5</b>              | <b>18 046,8</b>             | <b>4 054,8</b>                | <b>4119,9</b>                        |
| tumanlar:              |                              |                             |                               |                                      |
| Bektemir               | 762,3                        | 495,9                       | 111,0                         | 155,4                                |
| Mirzo Ulug'bek         | 2 833,8                      | 1 839,1                     | 568,0                         | 426,7                                |
| Mirobod                | 3 624,5                      | 2741                        | 405,3                         | 478,2                                |
| Olmazor                | 1 881,7                      | 1 420,5                     | 240,1                         | 221,1                                |
| Sirg'ali               | 1 157,3                      | 784,1                       | 162,5                         | 210,7                                |
| Uchtepa                | 1 200,0                      | 700,5                       | 167,6                         | 331,9                                |
| Chilonzor              | 2 490,5                      | 1 838,9                     | 319,2                         | 332,4                                |
| Shayxontohur           | 2 387,3                      | 1638                        | 260,0                         | 489,3                                |
| Yunusobod              | 4 093,0                      | 2 946,2                     | 648,7                         | 498,1                                |
| Yakkasaroy             | 2 758,3                      | 1 788,3                     | 579,5                         | 390,5                                |
| Yangihayot             | 1 217,5                      | 829,6                       | 152,6                         | 235,3                                |
| Yashnobod              | 1 815,3                      | 1 024,7                     | 440,3                         | 350,3                                |

# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-sentabr



ulushi % da



■ Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari ■ Fuqarolik obyektlarini qurish ■ Bino va inshootlarni qurish

## 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimidagi eng yuqori qurilish ishlari hajmi



Ma'lumot uchun: Qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Yunusobod tumani (3 727,8 mlrd.so'm), Mirobod tumani (3302,1 mlrd.so'm), Mirzo Ulug'bek tumani (2572,7 mlrd.so'm), Yakkasaroy tumani (2512,5 mlrd.so'm) ga to'g'ri keladi.



Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi

Aloqa telefoni: (71) 203-88-18 (19)